TOSHKENT VILOYATI OQQO'RG'ON TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - mart 78-10-133-Q/22 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–104-son qaroriga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, **qaror qilaman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi PQ–104-son qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2022 yil 14 fevraldagi 86-10-0-Q/22-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Hududlarining aholisi soni va zichligi, geografik joylashuvi, ixtisoslashuvi va infratuzilma bilan ta’minlanganlik darajasidan kelib chiqib, xizmatlar sohasini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilanganligi inobatga olinsin:

a) Tuman va shahar hokimliklari zimmasiga quyidagilar yuklanlanganligi inobatga olinsin:

budjet mablag‘lari hisobiga 2021–2022-yillarda shaharsozlik loyihalari asosida mukammal ta’mirlangan, tashqi yoritish, sug‘orish va drenaj tizimlari modyer nizatsiya qilingan, piyoda va velosiped yo‘laklari qurilgan hamda aholi gavjum bo‘lgan ko‘chalarni savdo, xizmat ko‘rsatish, sayilgoh va ko‘ngilochar ko‘chalarga aylantirish;

raqamli xizmatlar ulushini bosqichma-bosqich oshirish uchun zarur infratuzilma bilan ta’minlash va sifatli aloqa va intyer net xizmatlari qamrovini, shuningdek, “Elektron hukumat” tizimi xizmatlaridan foydalanish ko‘lamini keskin kengaytirish;

b) Toshkent, Nukus shaharlari, viloyatlar markazlari hamda boshqa shaharlarda ko‘pi bilan har 3 – 5 ta mahalla uchun aholi gavjum bo‘lgan ko‘chani obodonlashtirib, piyodalar yo‘lakchalarini kengaytirish va ularni yoritish orqali mahallalararo savdo-xizmat ko‘chasini tashkil etish;

v) aholisi 300 mingdan kam bo‘lgan tumanlarda:

sanoat va xizmatlar sohasi yuqori sur’atlarda rivojlanib borayotgan tumanlarda – savdo, mehmonxona, ovqatlanish va logistika xizmatlarini, shuningdek, texnik xizmat ko‘rsatish va ko‘ngilochar maskanlarni tashkil etishga ustuvorlik berish;

tog‘li, tog‘oldi, rekreatsion turizm salohiyati yuqori tumanlarda – avtomobil yo‘llari, elektr energiyasi va ichimlik suvi ta’minoti hamda boshqa infratuzilmani yaxshilash va tayyor loyihalar asosida turizm xizmatlarini rivojlantirish;

chegara hududlarda joylashgan hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo‘llar o‘tgan tumanlarni – savdo, turizm, logistika hamda yo‘l bo‘yi xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashtirish;

qishloq xo‘jaligi ulushi yuqori bo‘lgan tumanlarda – zamonaviy agroxizmatlarni rivojlantirish;

g) o‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlarda – zamonaviy bozor xizmatlari, ta’lim, tibbiyot, san’at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish;

3. Quyidagi takliflarga rozilik berilganligi ma’lumot va xizmat davomida foydalanish uchun qabul qilinsin:

a) 2022-yil 1-apreldan 2025-yil 1-yanvarga qadar chakana savdo va umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish) xizmatlari, avtotransportda yo‘lovchi va yuk tashish, transport vositalarini ta’mirlash va ularga texnik xizmat ko‘rsatish, kompyutyer xizmatlari, maishiy texnikani ta’mirlash, agro va vetyer inariya xizmatlarini ko‘rsatuvchi hamda ko‘ngilochar maskanlarda xizmatlar ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz etib belgilash. Bunda:

mazkur soliq imtiyozi tadbirkorlik subyektlari tomonidan, agar ularning mazkur kichik bandda ko‘rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo‘yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etsa, qo‘llaniladi;

mazkur kichik bandda ko‘rsatilgan faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan xodimlar sonini yashirish holatlari aniqlanganda, mazkur soliq imtiyozining amal qilishi to‘xtatiladi hamda qonunchilikda belgilangan moliyaviy sanktsiyalar qo‘llaniladi;

b) tadbirkorlik sub’ektlariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab 2027-yil 1- yanvarga qadar mehmonxona (joylashtirish vositalari) va maydoni 5 ming kvadrat metrdan yuqori bo‘lgan savdo komplekslari (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkalari) bo‘yicha:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 90 foizga kamaytirish. Bunda, 2027-yil 1-yanvargacha yangidan quriladigan obyektlarga (shu jumladan, ular egallagan yer uchastkasiga) nisbatan mazkur imtiyozni ular foydalanishga topshirilgan oydan boshlab 5 yil muddat davomida qo‘llash;

foyda solig‘ini hisoblashda binolarning qiymatini ikki yil davomida amortizatsiya xarajatlari sifatida chegirish huquqini berish;

v) 2022-yil 1-apreldan boshlab 2025-yil 1-yanvarga qadar 2-ilovada keltirilgan tuman va shaharlarda belgilanadigan turizm hududlarida ro‘yxatdan o‘tgan hamda ushbu hududda umumiy ovqatlanish, mehmonxona (joylashtirish), savdo, ko‘ngilochar, turopyer ator va turagent xizmatlarini ko‘rsatayotgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun:

aylanmadan olinadigan soliq stavkasini – 1 foiz;

ushbu hududlardagi obyektlar va ular egallagan yer uchastkasi bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i miqdorlarini – mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summaning 1 foizi miqdorida belgilash.

Bunda, tuman va shaharlarning turizm hududlari chegaralari Turizm va sport vazirligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligining hududiy bosh boshqarmalari xulosalari asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan belgilanadi;

g) jismoniy shaxslar tomonidan mahallalararo savdo-xizmat ko‘chalari bo‘yida joylashgan turarjoy obyektlarini ushbu bandning “a” kichik bandida keltirilgan xizmat ko‘rsatish turlari bo‘yicha noturarjoy obyekti toifasiga o‘tkazilganda 2024-yil 1-yanvarga qadar ularga nisbatan mol-mulk solig‘i va yer solig‘ining jismoniy shaxslar uchun o‘rnatilgan stavkasini saqlab qolish;

d) 2022-yil 1-yanvardan uyali aloqa opyer atorlari uchun uyali aloqa xizmatlariga solinadigan aktsiz solig‘i stavkasini 10 foiz etib o‘rnatish;

e) 2022-yil 1-apreldan boshlab qishloq joylarda antenna-machta metall konstruktsiyalarini, ularga o‘rnatilgan va ularning ajralmas qismi bo‘lgan konstruktsiyalar hamda ular egallagan yer uchastkalarini yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqdan va yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘idan ozod etish.

4. 2022-yil 1-fevraldan 2025-yil 1-yanvarga qadar quyidagilar bojxona bojidan ozod etilishi belgilanganligi ma’lumot va xizmat davomida foydalanish uchun qabul qilinsin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori 2-ilovasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlar;

a) telekommunikatsiya operatorlari va provaydyerlari tomonidan telekommunikatsiya infratuzilmasini joriy etish loyihalari doirasida O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda shakllantirilgan ro‘yxat bo‘yicha olib kiriladigan texnologik uskunalar, materiallar, dasturiy ta’minot va ehtiyot qismlar;

b) mol-mulk solig‘ini hisoblashda yer uchastkalarida o‘rnatilgan antennamachta metall konstruktsiyalari hamda ularga o‘rnatilgan va ularning ajralmas qismi bo‘lgan konstruktsiyalar (tortqilar, atrofni o‘rovchi devorlar, yuk ko‘tarish moslamalari, chaqmoqdan himoya qilish tizimlari, yerga ulash qurilmalari, signalyoritish tizimlari, qo‘riqlash

signalizatsiyasi va videokuzatuv tizimlari) ko‘chmas mulk sifatida qaraladi;

v) 2022-yil 1-apreldan boshlab:

radiochastota spektridan foydalanuvchilarga radiochastota organlarining tegishli ruxsatnomalariga asosan radiochastota spektridan birgalikda foydalanish huquqi beriladi;

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direktsiyasiga uning rezidentlari tomonidan har oy o‘tkaziladigan ajratmalar miqdori, ular tomonidan eksport qilingan axborot texnologiyalari xizmatlarining bir yillik hajmi 10 million AQSh dollaridan oshganda 25 foizga, 20 million AQSh dollaridan oshganda 50 foizga pasaytiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113-son qaroriga muvofiq, savdo va ko‘ngilochar ko‘chalarda:

ko‘chma savdo obyektlari uchun joylar tadbirkorlik sub’ektlariga elektron onlayn-auktsion savdosi asosida sotilishi;

barcha tadbirkorlik sub’ektlariga jamoat xavfsizligi qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda 24 soat mobaynida tunu kun faoliyat yuritish huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2022-yil 1-iyuldan boshlab 1-ilovaga muvofiq tumanlar va shaharlarda turizm obyektlarini qurish uchun yer uchastkalarini hududlarning master -rejalari asosida ishlab chiqilgan loyiha takliflari hamda zarur infratuzilma bilan ta’minlangan holda elektron onlayn-auktsion savdosiga chiqarish tartibi joriy etilganligi inobatga olinsin.

Viloyat hokimining turizm va sport masalalari bo‘yicha o‘rinbosari (J.Babajanov), viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Fayziyev) viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi (K.Xamidov) hamda tegishli hokimliklar bilan birgalikda 2022-yil 1-martga qadar hududlarning master-rejalarini ishlab chiqish uchun texnik topshiriqlarni Qurilish vazirligiga kiritilishini ta’minlanishi inobatga olinsin.

Qurilish vazirligi tegishli loyiha institutlari va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda 2022-yil 1-iyulga qadar hududlarning master-rejalari va loyiha takliflari ishlab chiqilishini ta’minlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (R.Payziev) Turizm va sport boshqarmasi (I.Xatamov) hamda tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yil 1-iyuldan boshlab loyiha takliflari va infratuzilmaga ega bo‘lgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auktsion savdosiga chiqarilishini ta’minlash inobatga olinsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori 2-ilovasida nazarda tutilgan hududlarning master-rejalarini ishlab chiqish va yer uchastkalarini zarur infratuzilma bilan ta’minlash ishlarini moliyalashtirish uchun:

Moliya vazirligi bir oy muddatda tegishli mahalliy hokimliklarga Davlat budjeti hisobidan 200 milliard so‘m miqdorida budjet ssudasini ajratishi;

mahalliy hokimliklar budjet ssudasining elektron onlayn-auktsion savdosi orqali sotilgan yer uchastkalaridan tushgan mablag‘lar hisobidan ikki yil davomida to‘liq qaytarilishini ta’minlashi belgilanganligi inobatga olinsin.

8. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev, viloyat hokimining investitsiyalar va tashqi savdo masalalari bo‘yicha o‘rinbosari N.Sharipov hamda viloyat hokimining turizm va sport masalalari bo‘yicha o‘rinbosari J.Babajanov:

a) viloyat iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi (K.Xamidov), viloyat turizm va sport boshqarmasi (I.Xatamov) va tijorat banklari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan infratuzilma bilan ta’minlangan yer uchastkalarini elektron-onlayn auktsion savdosiga chiqarish, ko‘p kvartirali uylarning birinchi qavatlari va yer to‘lalarida xizmat ko‘rsatish obyektlarini joylashtirish bo‘yicha loyiha takliflarini ishlab chiqish va ularni moliyalashtirishga ko‘maklashish orqali:

2022-yil 1-sentyabrga qadar 2-ilovaga muvofiq tuman va shaharlarning markaziy ko‘chalarini savdo, ko‘ngilochar, gastronomik, turizm va san’at yo‘nalishlariga ixtisoslashgan maxsus savdo va ko‘ngilochar ko‘chalarga aylantirish;

2022–2023 yillar davomida 3-ilovaga muvofiq “Yangi O‘zbekiston” massivlarida xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish;

bir oy muddatda ushbu qarorning 2-bandi “b” kichik bandida nazarda tutilgan mahallalararo ko‘chalarni belgilasin va ularni 2022–2023-yillarda savdoxizmat ko‘chalariga aylantirish choralarini ko‘rishi inobatga olinsin;

b) bir oy muddatda zarur infratuzilma bilan ta’minlangan yer uchastkalarini elektron onlayn auktsion savdosiga chiqarish orqali 2022-2023-yillar davomida:

4-ilovaga muvofiq yirik tuman va shaharlarda savdo komplekslari hamda hududiy savdo-logistika markazlari barpo etilishi;

5-ilovaga muvofiq xalqaro yo‘llar bo‘yida xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etilishini ta’minlanishi;

v) bir oy muddatda nodavlat umumta’lim va maktabgacha ta’lim muassasalarini qurish sharti bilan 6-ilovaga muvofiq tuman (shahar)larda yer uchastkalari elektron onlayn-auktsion savdosiga chiqarilishini ta’minlanishi;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (R.Payziev), viloyat Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bosh boshqarmasi (K.Xamidov) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda mazkur qarorning 3–6-ilovalariga muvofiq xizmat ko‘rsatish obyektlarini tashkil etish uchun auktsionlarga chiqariladigan yer maydonlarini doimiy ravishda ko‘paytirib borish choralarini ko‘rishi inobatga olinsin.

9. Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazi (M.Fayziyev), viloyat Markaziy

bank bosh boshqarmasi (A.Nizamov) tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda 2022-yil dasturi doirasida ajratilayotgan mablag‘larning 35 milliard so‘mi xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi loyihalarga, birinchi navbatda Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan talablarga javob beradigan oilaviy mehmon uylari (50 mln so‘mgacha), xostellar (1 mlrd so‘mgacha), o‘tov lagerlari majmuasi (300 mln so‘mgacha), avtokempinglar (3 mlrd so‘mgacha), ekouylar majmuasi (300 mln so‘mgacha), konteynyer shaharchalar (600 mln so‘mgacha) va chodirli lagyer lar (60 mln so‘mgacha) tashkil etish va ularni ta’mirlash loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishini ta’minlanishi.

Markaziy bank bosh boshqarmasi (A.Nizamov), tijorat banklari tuman va shahar hokimliklari bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqoridagi qarori bilan xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi loyihalarni moliyalashtiriga ajratilishi belgilangan 35 milliard so‘m mablag‘lar bo‘yicha loyihalarning manzilli ro‘yxatlarini shakllantirishi inobatga olinsin.

10. Tijorat banklariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16- iyundagi “Xizmatlar sohasini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4752-son qaroriga muvofiq jalb etilgan resurs mablag‘larining muddatidan kelib chiqib, avval ajratilgan kreditlarning so‘ndirilgan qismi hisobidan xizmatlar sohasidagi yangi loyihalarni (moliya sohasini rivojlantirish bo‘yicha loyihalar va xizmatlar sohasida aylanma mablag‘larni to‘ldirish hollari bundan mustasno) moliyalashtirish uchun 14 foiz stavkada bitta loyiha bo‘yicha 2 milliard so‘mgacha miqdorda kreditlar ajratishga ruxsat berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi «Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–5113- son qaroriga muvofiq “O‘zmilliybank” AJ tomonidan xorijiy banklardan jalb qilingan 200 million AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larni barcha shaharlar va tumanlar markazlarida xizmatlar sohasini rivojlantirish, shu jumladan 29 ta shahar va 6 ta yirik tumanlarda turizm, transport, tibbiyot, ta’lim obyektlari va yirik savdo komplekslarini tashkil etish loyihalarini moliyalashtirish uchun quyidagi shartlar asosida ajratish to‘g‘risidagi taklif ma’qullanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2022-yilga mo‘ljallangan “yo‘l xaritasi” 7-ilovaga muvofiq;

2022-yilda Toshkent viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirishning yig‘ma 8-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsun.

13. Tuman iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo’limi boshlig’i (K.Shintemirov) bir hafta muddatda mazkur qarorning 2-bandida belgilangan mezonlar asosida tuman kesimida ishlab chiqilgan xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni viloyat hokimligiga tasdiqlash uchun kiritsin.

Bunda, mazkur qarorning 8-ilovada nazarda tutilgan 2022-yilda Toshkent viloyatida xizmatlar sohasini rivojlantirishning yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlari inobatga olinsin.

14. 2022-yil 1-fevraldan boshlab Oliy Majlis Senati tomonidan har oy Vazirlar Mahkamasi, vazirlik, idoralar va hokimliklar tomonidan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini tanqidiy o‘rganish va ularning faoliyatiga baho berish amaliyoti joriy etilganligi ma’lumot va xizmat davomida foydalanish uchun qabul qilinsin.

15. Viloyat hokimining 2021-yil 17-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 238-son qaroriga 9-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish hamda samarali tashkil etish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari K.Shintemirov, tuman hokimining o‘rinbosari, investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi boshlig'i S.Xakimjonov hamda tuman turizm va sport bo'limi boshlig'i B.Saydayev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Karimdjanov**